


## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019-yil yanvar-iyun\*)

2019-yil yanvar-iyun oyi yakunlariga ko'ra O'zbekiston jahonning 166 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Xususan, tashqi savdo aylanmasi 19 683,2 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29,8 % ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 8 437,6 mln. AQSH dollarga (o'sish sur'ati 27,0 %) va import hajmi 11 245,6 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 32,0 %) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 2 808,0 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

### O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi

(mln. AQSH dollari, ulushi %)




Tashqi savdo hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy qismi bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu sohadagi izchil islohotlar bizga tovar va xizmatlar bozorlarini kengaytirishga imkon beradi. So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

\*dastlabki ma'lumot

Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning yanvar-iyun oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 793,5 mln. AQSH dollarga ko'proq eksport qilindi, tovar va xizmatlar importi hajmi esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 726,5 mln. AQSH dollariga ko'proqdir.

**O'zbekiston Respublikasi bilan savdo aylanmasi eng yuqori bo'lgan 10 davlat**




Iqtisodiyotning muhim omili bo'lgan tashqi savdo operatsiyalari mamlakatni rivojlantirishni ta'minlaydi. Boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yish respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning eksportini oshirishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri bo'lishga imkon beradi.

2019-yilning yanvar-iyun oyi yakuni bo'yicha tovarlar eksporti bilan shug'ullanuvchi korxonalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 831 taga ko'payib, 3885 taga yetdi.

### Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi hajmi


(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)




Tashqi savdo aylanmasi dinamikasidan keltirilgan ma'lumotlar ko'rsatkichlarning qolgan yillarga nisbatan o'sganligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, 2019-yil yanvar-iyun oyida amalga oshirilgan eksport hajmi, o'tgan yillarga nisbatan ko'payib, 8437,6 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

### Tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlarining oylik dinamikasi

(mln. AQSH dollari)



## Tashqi savdo aylanmasida eksport va import ulushi, %




Respublikada joriy yilning 2 choragida amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi 10 274,0 mln. AQSH dollarini tashkil qilib 1 chorak bilan taqqoslaganda 9,2 % ga o`sganligi kuzatilmoqda.

2019 yilning 2 choragi yakunlariga ko`ra tashqi savdo aylanmasi umumiy hajmida import ulushining ko`payishi (56,1% dan 57,1 % ga ), eksport ulushining esa kamayishi ( 43,9 % dan 42,9 % ga) kuzatildi.


## O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining choraklik dinamikasi

(mln. AQSH dollari)



## O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)



MDH mamlakatlari bilan an'anaviy savdo munosabatlari, shu bilan bir qatorda, tashqi savdoni har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi tufayli, MDHga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasining ulushi 2019 yil yanvar-iyun oylarida 34,8% (6 840,2 mln. AQSH dollari), o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 118,1% ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy sheriklar bilan ham joriy savdo aloqalari rivojlanishda davom etmoqda. Jumladan, 2019 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 65,2% ni (12 843 mln. AQSH dollari), tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 137,0% ni tashkil etdi.

**O`zbekiston Respublikasining  
ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**

(mln.AQSH dollari)

Davlat nomi	2017-yil yanvar-iyun	2018-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun
<b>Xitoy</b>	<b>2100,2</b>	<b>2723,4</b>	<b>3895,5</b>
eksport	929,8	1216,9	1599,2
import	1170,5	1506,4	2296,4
saldo	-240,7	-289,5	-697,2
<b>Rossiya</b>	<b>2223,9</b>	<b>2759,8</b>	<b>2984,6</b>
eksport	966,6	947,7	1145,9
import	1257,4	1812,1	1838,7
saldo	-290,8	-864,4	-692,9
<b>Qozog'iston</b>	<b>942,0</b>	<b>1434,5</b>	<b>1682,8</b>
eksport	473,9	698,3	681,3
import	468,1	736,2	1001,5
saldo	5,8	-37,9	-320,2
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>571,1</b>	<b>765,4</b>	<b>1346,1</b>
eksport	54,1	47,5	46,9
import	517,0	717,9	1299,2
saldo	-463,0	-670,4	-1252,3
<b>Turkiya</b>	<b>709,5</b>	<b>939,6</b>	<b>1188,1</b>
eksport	392,8	444,6	572,2
import	316,8	495,0	615,9
saldo	76,0	-50,5	-43,7
<b>Germaniya</b>	<b>323,9</b>	<b>333,4</b>	<b>450,1</b>
eksport	12,6	20,4	24,0

(mln.AQSH dollari)

Davlat nomi	2017-yil yanvar-iyun	2018-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun
import	311,2	313,1	426,0
saldo	-298,6	-292,7	-402,0
<b>Qirg'iziston</b>	<b>114,5</b>	<b>181,1</b>	<b>446,6</b>
eksport	87,5	121,6	378,7
import	27,0	59,4	67,8
saldo	60,5	62,2	310,9
<b>AQSH</b>	<b>111,3</b>	<b>256,8</b>	<b>309,7</b>
eksport	10,6	14,7	14,0
import	100,7	242,1	295,7
saldo	-90,2	-227,4	-281,7
<b>Afg'oniston</b>	<b>289,9</b>	<b>341,0</b>	<b>266,0</b>
eksport	289,2	340,0	264,9
import	0,6	1,0	1,1
saldo	288,6	338,9	263,8
<b>Turkmaniston</b>	<b>101,3</b>	<b>92,4</b>	<b>257,0</b>
eksport	32,9	21,9	38,5
import	68,3	70,6	218,5
saldo	-35,4	-48,7	-180,0
<b>Latviya</b>	<b>158,1</b>	<b>229,0</b>	<b>220,2</b>
eksport	46,3	22,8	25,2
import	111,8	206,3	195,1
saldo	-65,5	-183,5	-169,9
<b>Eron</b>	<b>166,0</b>	<b>156,2</b>	<b>213,8</b>
eksport	142,5	115,0	119,5

(mln.AQSH dollari)

Davlat nomi	2017-yil yanvar-iyun	2018-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun
import	23,6	41,2	94,3
saldo	118,9	73,8	25,2
<b>Tojikiston</b>	<b>118,4</b>	<b>165,5</b>	<b>206,2</b>
eksport	91,6	97,0	143,0
import	26,9	68,5	63,2
saldo	64,7	28,5	79,8
<b>Litva</b>	<b>153,1</b>	<b>128,2</b>	<b>204,0</b>
eksport	2,1	4,9	12,2
import	151,0	123,3	191,8
saldo	-148,9	-118,4	-179,6
<b>Ukraina</b>	<b>129,2</b>	<b>206,6</b>	<b>200,6</b>
eksport	45,8	49,3	68,9
import	83,5	157,4	131,7
saldo	-37,7	-108,1	-62,8
<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>51,3</b>	<b>208,1</b>	<b>188,4</b>
eksport	11,3	19,2	22,6
import	40,0	188,9	165,8
saldo	-28,7	-169,7	-143,2
<b>Yaponiya</b>	<b>59,7</b>	<b>90,2</b>	<b>166,2</b>
eksport	5,1	5,1	13,4
import	54,6	85,2	152,8
saldo	-49,5	-80,1	-139,4
<b>Hindiston</b>	<b>165,4</b>	<b>134,7</b>	<b>164,4</b>
eksport	18,3	13,9	9,3



(mln.AQSH dollari)

Davlat nomi	2017-yil yanvar-iyun	2018-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun
import	147,1	120,8	155,1
saldo	-128,8	-106,9	-145,8
<b>Fransiya</b>	<b>130,6</b>	<b>146,0</b>	<b>163,5</b>
eksport	70,0	90,2	98,1
import	60,6	55,7	65,4
saldo	9,4	34,5	32,8
<b>Italiya</b>	<b>78,0</b>	<b>122,0</b>	<b>150,1</b>
eksport	7,8	11,9	13,5
import	70,2	110,1	136,6
saldo	-62,4	-98,1	-123,1


## EKSPORT

2019-yil yanvar-iyun oyida eksport hajmi 8 437,6 mln. AQSH dollarga (o'sish sur'ati 27,0 %) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 81,5 % ulushga ega bo'lib, bular asosan energiya manbalari va neft mahsulotlari (16,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,4 %), to'qimachilik va to'qimachilik buyumlari (9,1 %), rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar (5,8 %) hamda qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar (1,7 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.



Oltin hajmini hisobga olmagan holda, jami tovar va xizmatlar eksporti 6 343,0 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 24,7 % ga o'sdi.

## Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi

yanvar-iyun, mln. AQSH dollari



yanvar-iyun, ulushi



2019-yilning yanvar-iyun oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o'tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-iyun oylarida, o'tgan yilning mos davriga

nisbatan, kimyo mahsulotlari va buyumlaridan tashqari tovar va xizmatlar tarkibi turlarini eksport qilish hajmlarining o'sishi kuzatildi.

### Eksport tarkibi

(2019-yil yanvar-iyun)

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Jami eksport</b>	<b>8437,6</b>	<b>127,0</b>	<b>100,0</b>	<b>2962,8</b>	<b>127,3</b>	<b>100,0</b>	<b>5474,8</b>	<b>126,8</b>	<b>100,0</b>
<b>Paxta tolasi</b>	222,2	133,0	2,6	0,9	29,6	0,0	221,3	134,8	4,0
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	793,7	136,4	9,4	552,0	141,5	18,6	241,6	126,0	4,4
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	456,7	97,9	5,4	204,3	107,7	6,9	252,4	91,1	4,6
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	1417,2	128,1	16,8	607,4	117,4	20,5	809,8	137,6	14,8
<b>Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar</b>	146,6	147,7	1,7	31,9	279,1	1,1	114,7	130,6	2,1
<b>Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar</b>	486,2	143,0	5,8	94,1	205,9	3,2	392,1	133,3	7,2
<b>Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari</b>	194,4	187,4	2,3	136,8	176,6	4,6	57,6	219,3	1,1
<b>To'qimachilik mahsulotlari</b>	771,5	118,3	9,1	400,0	112,2	13,5	371,5	125,8	6,8
<b>Oltin</b>	2094,6	134,4	24,8	-	-	-	-	-	-
<b>Xizmatlar</b>	1563,0	110,2	18,5	795,8	117,1	26,9	767,2	103,8	14,0
<b>Boshqalar</b>	291,5	193,4	3,6	139,6	244,3	4,7	152,0	162,3	2,7

## Eksport tarkibi dinamikasi

(yanvar-iyun, mln. AQSH. dollari)

Tarkibi	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil
<b>Jami</b>	<b>5888,9</b>	<b>5279,9</b>	<b>5486,9</b>	<b>6644,1</b>	<b>8437,6</b>
Paxta tolasi	340,1	313,4	258,7	167,1	222,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	690,9	301,5	366,6	581,9	793,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	321,6	471,1	443,3	466,7	456,7
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	1173,7	851,8	713,3	1106,2	1417,2
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	73,9	75,4	77,6	99,2	146,6
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	339,2	255,7	323,1	340,0	486,2
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	58,9	76,3	143,3	103,7	194,4
To`qimachilik mahsulotlari	465,0	431,0	558,8	652,0	771,5
Oltin	823,9	738,2	1190,5	1558,1	2094,6
Xizmatlar	1463,9	1580,1	1204,3	1418,6	1563,0
Boshqalar	137,8	185,4	207,4	150,7	291,5

Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko`ra, 2019-yilning yanvar-iyun oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 1 649,0 mln. AQSH dollariga ko`p eksport qilindi va 6 874,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 1 563,0 mln. AQSH dollarga yetgan.

### 2019-yilning yanvar-iyun oyida eksport qilingan ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi

	mln. AQSH dollari	o`tgani yilga nisbatan, %		mln. AQSH dollari	o`tgani yilga nisbatan, %
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>					
meva va rezavorlar	315,8	115,0	alkagolli va alkagolsiz ichimliklar	5,9	93,7
sabzavotlar	312,2	165,8	qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari	24,8	181,0
bug`doy	2,7	15,3	qalampir	64,4	15,3 b.
<b>Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar</b>					
plastmassalar va ulardan tayyorlangan buyumlar	208,3	82,1	korbonat	7,8	118,2
o`g`itlar	71,5	103,6	kimyoviy shtapelli tola	8,0	2,5 b.
farmasevtika mahsuloti	4,3	75,4	ammiak	0,7	63,6
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>					
tabiiy gaz	1282,6	131,7	motor moylari	2,5	48,1
elektroenergiya	47,5	44,8	tarkibida oltingugurt bo`lgan yoqilg`ilar	3,2	80,0
qayta ishlangan boshqa neft mahsulotlari	23,1	2,1 b.			
<b>Qora va rangli metallar</b>					
mis va mis buyumlari	352,0	152,2	rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar (misdan tashqari)	134,2	123,3
temir burchaklar, prutkalar va maxsus profilar	124,9	1,4 b.	qora metallardan tayyorlangan bosma va dag`al buyumlar	0,3	42,9
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>					
simlar va kabellar	21,4	2,5 b.	yengil avtomobil	52,7	2,3 b.
transformatorlar va akkumulyatorlar	11,2	134,9	avtobuslar va mikroavtobuslar	5,1	175,9
elektr zanjirlarni almashtirish yoki himoya qilish jihozlari	11,5	2,6 b.	yuk vagonlari (sisternalarni qo`shgan holda)	-	-

	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %		mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %
avtomobillar uchun ehtiyot qismlar va jihozlar	1,8	81,8	yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	4,7	109,3
monitorlar va proyektorlar	3,6	75,0	tirkama va yarim tirkamalar	4,6	3,8 b.
<b>Boshqalar</b>					
to'qimachilik mahsulotlari	771,5	118,3	oyoq kiyim, getra va ularning qismlari	7,8	150,0
charm xom-ashyosi, charm va jun, ulardan tayyorlangan buyumlar	29,6	83,4	shisha va shisha buyumlar	3,2	65,3
qog'oz, karton va matbaa buyumlari	9,1	85,0	sopol buyumlar	5,1	69,9

Eksportning eng katta ulushi tabiiy gaz (umumiy tovarlar eksporti hajmidagi ulushi 18,7%), to'qimachilik mahsulotlari (11,2%), mis va mis buyumlari (5,1%), sabzavotlar (4,5%), meva va rezavorlar (4,6%) hissasiga to'g'ri keladi.

### MDH va boshqa xorijiy davlatlarga tovar eksporti hajmlari dinamikasi

*yanvar-iyun, mln. AQSH dollari*



**MDH mamlakatlari**



**Boshqa mamlakatlar**

## Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi yanvar-iyun



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy (eksport umumiy hajmining 19,0%), Rossiya (13,6%), Qozog`iston (8,1%), Turkiya (6,8%), Qirg`iziston (4,5%), Afg`oniston (3,1%) va Tojikiston (1,7%) hissasiga to`g`ri keladi. Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan energiya manbalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.

### O`zbekiston Respublikasining asosiy hamkor davlatlariga amalga oshirilgan eksport hajmi

(yanvar-iyun oyi)

Davlat nomi	mln. AQSH dollari		o`shish sur`ati, %		o`rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Xitoy	1216,9	1599,2	130,9	131,4	1	1
Rossiya	947,7	1145,9	98,1	120,9	2	2
Qozog`iston	698,3	681,3	147,4	97,6	3	3
Turkiya	444,6	572,2	113,2	128,7	4	4
Qirg`iziston	121,6	378,7	139,0	3,1 b.	6	5
Afg`oniston	340,0	264,9	117,5	77,9	5	6
Tojikiston	97,0	143,0	105,9	147,5	8	7
Eron	115,0	119,5	80,7	103,9	7	8
Fransiya	90,2	98,1	129,0	108,8	9	9
Ukraina	49,3	68,9	107,6	139,8	10	10
Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)	22,5	60,5	112,1	2,7 b.	14	11
Koreya Respublikasi	47,5	46,9	87,8	98,7	11	12
Buyuk Britaniya	19,5	41,5	86,8	2,1 b.	19	13
Turkmaniston	21,9	38,5	66,4	176,2	16	14
Pokiston	12,8	37,8	3,6 b.	3,0 b.	27	15
Latviya	22,8	25,2	49,2	110,6	13	16
Germaniya	20,4	24,0	161,1	118,0	17	17
Belarus Respublikasi	19,2	22,6	169,6	117,9	22	18
Polsha	19,4	21,4	117,9	110,0	20	19
Ozarbajjon	13,3	19,9	190,1	149,4	25	20



**Respublikaning ayrim davlatlar  
bilan eksport tarkibi**


(yanvar-iyun oyi)

(mln. AQSH dollari)

	Xitoy		Rossiya		Qozog'iston		Turkiya	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
<b>Jami eksport</b>	<b>1216,9</b>	<b>1599,2</b>	<b>947,7</b>	<b>1145,9</b>	<b>698,3</b>	<b>681,3</b>	<b>444,6</b>	<b>572,2</b>
paxta tolasi	51,1	141,5	2,6	0,4	0,0	0,0	8,1	5,9
oziq-ovqat mahsulotlari	29,4	30,4	80,3	97,9	250,5	160,7	10,5	75,9
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	83,6	83,6	87,1	88,0	49,2	58,8	58,5	31,6
energiya manbalari va neft mahsulotlari	471,5	704,1	219,9	368,4	279,3	210,5	0,9	7,0
qora metallar	1,8	0,3	2,6	1,3	1,1	23,3	2,5	3,7
rangli metallar	30,8	52,4	17,1	48,5	11,9	24,9	246,2	314,6
mashina va asbob-uskunalar	2,1	2,0	35,7	35,3	19,9	67,4	15,1	28,5
To'qimachilik mahsulotlari	156,0	211,8	279,5	300,3	21,6	19,6	73,4	79,2
xizmatlar	358,8	346,6	204,2	189,0	47,1	60,7	26,5	23,8
boshqalar	31,8	26,5	18,7	16,8	17,7	55,5	2,9	2,0

### Xizmatlar eksporti tarkibi, %

(yanvar-iyun)



Xizmatlar eksporti hajmi 1 563,0 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 18,5 % ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,2 % ga o'sganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti


2019-yilning yanvar-iyun oyida jami 738,5 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 628,0 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati - 35,7 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019-yilning yanvar-iyun oyida 540,1 ming tonna sabzavotlar 312,2 mln. AQSH

dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,1 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 198,4 ming tonna meva va rezavorlar 315,8 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 37,2 ming tonnaga ko'pdir.

## Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

yanvar-iyun



Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganligi sababli, eksport qilinayotgan tovarlar sifati va hajmi yil sayin ortib bormoqda. Jumladan, 2019 yil yanvar-iyun oylarida meva va sabzavotlarning umumiy eksportdagi ulushi 7,4% ni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4% ga ko'pdir.

## Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2018-yil yanvar-iyun			2019-yil yanvar-iyun		
	ming tonna	mln. AQSH dollari	ulushi, %	ming tonna	mln. AQSH dollari	ulushi, %
Qozog'iston	225,7	66,4	14,3	204,6	78,5	12,5
Qirg'iziston	20,0	6,7	1,4	27,4	64,6	10,3
Rossiya	68,5	36,2	7,8	89,8	38,9	6,2
Pokiston	10,6	8,3	1,8	18,1	29,8	4,7
Afg'oniston	32,7	23,0	5,0	19,8	24,6	3,9
Ukraina	1,6	0,8	0,2	39,0	22,7	3,6
Turkiya	8,0	5,7	1,2	41,3	10,7	1,7
Xitoy	20,0	12,6	2,7	14,4	9,0	1,4
Eron	4,9	4,1	0,9	11,9	8,9	1,4
Tojikiston	0,2	0,2	0,0	3,4	4,3	0,7
Iroq	0,7	0,5	0,1	10,8	2,5	0,4
Bolgariya	0,0	0,0	0,0	1,6	2,4	0,4
Belarus Respublikasi	0,8	0,2	0,0	5,9	2,3	0,4
Suriya	0,0	0,0	0,0	12,1	1,9	0,3
Polsha	0,1	0,1	0,0	6,8	1,6	0,3
Gruziya	1,2	1,0	0,2	6,4	1,4	0,2
Boshqalar	195,1	297,0	64,4	225,2	323,9	51,6

### To'qimachilik mahsulotlari eksporti

2019-yilning o'tgan davri mobaynida 771,5 mln. AQSH dollari miqdorida to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirildi. Bu ko'rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 18,3 % ga o'sib, umumiy eksport hajmining 9,1 % ini tashkil qildi. Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibidan paxtadan yigirilgan ip (57,6 %), tayyor to'qima matolar va tikuvchilik kiyimlari

(23,4 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 357 turdan ortiq mahsulotlar dunyoning 52 ta davlatiga eksport qilindi.


### To'qimachilik mahsulotlari eksporti

(mln. AQSH dollari)

	2017-yil yanvar-iyun	2018-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun
Paxtadan yigirilgan ip	306,4	381,0	444,1
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	141,6	144,5	180,4
Naqshli mato	27,8	33,2	41,7
Paxtadan gazlamalar	27,1	29,7	34,5
Boshqa to'qimachilik mahsulotlar	16,2	17,9	21,9
Ipak va ipak mahsulotlari	9,6	16,0	17,7
Gilamlar	12,9	14,2	13,5
Paxta mahsulotlari	13,9	11,0	13,4

### To'qimachilik mahsulotlari eksporti tarkibi

(mln. AQSH. dollari)



## To'qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2017-yil	2018-yil	2019-yil
Rossiya Federatsiyasi	269,2	279,5	300,3
Xitoy	103,4	156,0	211,8
Turkiya	51,6	73,4	79,2
Qirg'iziston	26,6	31,0	43,4
Eron	13,3	7,6	24,1
Qozog'iston	23,3	21,6	19,6
Polsha	9,5	11,4	12,3
Belarus Respublikasi	7,5	10,6	11,8
Ukraina	5,6	8,1	11,7
Italiya	1,6	3,8	6,7
Bangladesh	5,6	12,9	5,8
Misr	0,0	0,7	5,6
Tojikiston	2,9	1,3	5,1
Pokiston	0,4	1,9	4,8
Ozarbayjon	1,0	2,2	4,4
Germaniya	1,3	1,6	3,8
Koreya Respublikasi	13,8	5,5	3,4
Moldova Respublikasi	1,4	1,7	3,0
Vyetnam	3,5	1,8	2,6
Afg'oniston	2,8	3,9	2,3

Respublikaning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.


To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (300,3 mln. AQSH dollari), Xitoy (211,8 mln. AQSH dollari) va Turkiya (79,2 mln. AQSH dollari) davlatlariga tegishli.

## IMPORT


Joriy yilning yanvar-iyun oyida import hajmi 11 245,6 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 32,0 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar hamda ularning qismlari (43,6 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (13,3 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (8,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.

### Tovar va xizmatlar importi tarkibi

yanvar-iyun, mln. AQSH dollari



yanvar-iyun, ulushi



2019 yil yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari importining ulushi 39,2 % dan 43,6 % gacha o'sdi, oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi esa 9,9 % dan 8,2 % ga kamaydi.

### Import tarkibi

(2019-yil yanvar-iyun)

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Jami import</b>	<b>11245,6</b>	<b>132,0</b>	<b>100,0</b>	<b>3877,4</b>	<b>112,0</b>	<b>100,0</b>	<b>7368,3</b>	<b>145,7</b>	<b>100,0</b>
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	918,8	108,7	8,2	614,1	96,2	15,8	304,8	146,9	4,1
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	1496,9	131,7	13,3	315,4	143,7	8,1	1181,5	128,8	16,0
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	436,9	88,0	3,9	417,3	87,3	10,8	19,6	108,2	0,3
<b>Qora metallar</b>	851,4	121,8	7,6	580,5	114,6	15,0	270,9	140,7	3,7
<b>Rangli metallar</b>	119,0	140,6	1,1	78,3	129,3	2,0	40,7	169,0	0,6
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	4906,3	146,9	43,6	575,7	109,4	14,8	4330,5	153,9	58,8
<b>Xizmatlar</b>	1088,0	105,8	9,7	475,4	105,4	12,3	612,6	106,2	8,3
<b>Boshqalar</b>	1428,3	160,7	12,6	820,7	140,7	21,2	607,7	198,8	8,2

### Import tarkibi dinamikasi



(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

Tarkib	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil
Jami	6292,5	5590,1	6504,2	8519,1	11245,6
Oziq-ovqat mahsulotlari	847,7	701,7	679,9	845,5	918,8
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	1102,6	1057,9	1089,6	1137,0	1496,9
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	340,3	279,1	325,8	496,3	436,9
Qora metallar	386,1	350,2	535,0	699,1	851,4
Rangli metallar	74,0	48,3	66,3	84,6	119,0
Mashina va asbob-uskunalar	2677,2	2227,3	2266,6	3339,5	4906,3
Xizmatlar	416,8	361,0	828,7	1028,1	1088,0
Boshqalar	447,8	564,6	712,3	889,0	1428,3

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2019-yilning yanvar-iyun oyi mobaynida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 666,5 mln. AQSH dollariga ko`p import qilindi va 10 157,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1 088,0 mln. AQSH dollarga yetgan.

### 2019-yilning yanvar-iyun oyida import qilingan ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi

	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %		mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>					
shakar homashyosi	81,9	163,8 b.	kakao va undan tayyorlangan mahsulotlar	25,2	148,2

	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %		mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %
bug`doy	182,5	135,1	qandolat mahsulotlari	33,9	183,2
un	46,1	70,7	pista moyi	93,8	143,6
tayyor hayvon yemi	70,2	117,8	margarin	18,2	119,7
choy	23,4	82,7	sitrus mevalar	22,1	157,9
kartoshka	13,0	41,3	go`sht va yarim tayyor ozuq-ovqat mahsulotlari	10,1	138,4

### Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar

farmasevtika mahsulotlari	487,3	119,3	o`simliklarni o`stirish regulyatorlari	42,1	140,3
plastmassa va plastmassa buyumlar	365,4	149,8	kimyoviy iplar	27,7	98,6
kauchuk va rezina mahsulotlari	114,3	133,5	kimyoviy shtapelli tola	25,7	89,2
organik kimyo birikmalari mahsuloti	73,8	113,5	aralashmalar va erituvchilar	34,7	169,3
parfyumeriya-kosmetika va yuvish vositalari	94,5	153,4	kaustik soda	16,2	98,2
bo`yoq ekstraktlari	63,1	108,2	kimyoviy va mineral o`g`itlar	39,5	4,5 b.

### Energiya manbalari va neft mahsulotlari

neftni qayta ishlash mahsulotlari	297,5	96,3	aglomerlanmagan lignit yoki jigarrang ko`mir	11,3	77,4
neft xom-ashyosi	56,4	41,2	elektroenergiya	19,9	88,8

### Qora va rangli metallar


qora metall va undan tayyorlangan buyumlar	851,4	121,8	rangli metall va undan tayyorlangan buyumlar	119,0	140,7
--	-------	-------	--	-------	-------

	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %		mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>					
avtomobil uchun ehtiyot qismlar va buyumlar	424,3	119,9	ekskavatorlar va buldozerlar	165,3	103,9
to'qimachilik tolasini qayta ishlash mashinalari	262,3	102,5	kir yuvish va idish yuvish mashinalari, quritgichlar, sentrafugalar	212,8	163,1
yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	239,0	152,2	yengil avtomobillar	178,3	167,3
konditsionerlar, sovutkichlar, muzlatkichlar va isitgichli uskunalar	303,8	163,2	shinalar va pokrishkalar	96,8	101,8
qishloq xo'jaligi mashinalari va boshqa uskunalar	123,1	74,1	tibbiy asbob-uskunalar	126,8	159,9
tuproqni maydalovchi uskunalar	205,1	2,3 b.	elektron dvigatellar, generatorlar va transformatorlar	141,4	133,4
vakum va suyuqlik nasoslari	173,7	131,1	neftgaz quvurlari uchun truba va trubkalar	100,7	107,5
uchuvchi apparatlar	262,5	197,1	oziq ovqatsanoati uchun uskunalar	32,1	46,1
<b>Boshqalar</b>					
yog'och va yog'och buyumlar	288,8	96,0	boshqa tirik o'simliklar	18,6	60,8
qog'oz, karton va chop etilgan buyumlar	124,0	120,9	asbest	13,8	57,5
sement	87,7	141,0	qimmatbaho bo'lmagan metallardan ishlangan oshxona asbob-anjomlari	18,6	123,2
rangli metall konsentratlari va rudalari	177,1	3,1 b.	o'rindiqli mebellar	19,9	174,6.
tosh, gips va keramik buyumlar	80,7	2,1 b.	o'yinchoqlar, o'yinlar va sport anjomlari	14,3	188,2

	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %		mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %
qurilish majmualari konstruksiyasi	192,9	5,4 b.	yirik shoxli mollar	59,3	6,2 b.
shisha va shishadan tayyorlangan buyumlar	35,5	107,3	tirik uy parrandalari	3,8	71,7

### MDH va boshqa xorijiy davlatlardan tovar importi hajmlari dinamikasi

yanvar-iyun, mln. AQSH dollari




**O`zbekiston Respublikaga  
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**

*(yanvar-iyun)*

Davlat nomi	mln. AQSH dollari		o`shish sur`ati, %		o`rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Xitoy	1506,4	2296,4	128,7	152,4	2	1
Rossiya	1812,1	1838,7	144,1	101,5	1	2
Koreya Respublikasi	717,9	1299,2	138,9	181,0	4	3
Qozog`iston	736,2	1001,5	157,3	136,0	3	4
Turkiya	495,0	615,9	156,3	124,4	5	5
Germaniya	313,1	426,0	100,6	136,1	6	6
AQSH	242,1	295,7	240,4	122,1	7	7
Turkmaniston	70,6	218,5	103,2	3,1 b.	16	8
Latviya	206,3	195,1	184,5	94,6	8	9
Litva	123,3	191,8	81,7	155,5	11	10
Belarus Respublikasi	188,9	165,8	4,7 b.	87,8	9	11
Hisdiston	120,8	155,1	82,1	128,4	12	12
Yaponiya	85,2	152,8	155,9	179,4	14	13
Italiya	110,1	136,6	156,8	124,1	13	14
Ukraina	157,4	131,7	188,6	83,7	10	15
Eron	41,2	94,3	174,8	2,3 b.	23	16
Singapur	6,7	87,5	144,5	13,0 b.	47	17
Braziliya	7,4	73,5	3,7	9,9 b.	43	18
Shveysariya	74,6	69,5	96,3	93,2	15	19
Qirg`iziston	59,4	67,8	2,2 b.	114,2	19	20

## Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi



yanvar-iyun









2019-yilning yanvar-iyun oyida respublikaga 144 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo`lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog`iston, Turkiya, Germaniya va AQSH hamkor davlatlaridan jami import hajmi 7 773,4 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 69,1 % ini tashkil qiladi.

### Xizmatlar importi tarkibi, %

(yanvar-iyun)



- |   |  |
|---|--|
|  Turizm (safarlar)                                   |  Moliyaviy xizmatlar |
|  Transport xizmatlari                                |  Qurilish xizmatlari |
|  Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari |  Boshqalar           |

Xizmatlar importi hajmi 1 088,0 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 9,7 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 % ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlaridan iborat bo'ldi.


### Qurilish materiallari importi

2019-yilning yanvar-iyun oyi mobaynida 627,0 mln. AQSH dollari miqdorida qurilish materiallari importi hajmi amalga oshirildi. Bu ko'rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 15,6 % ga o'sib, umumiy import hajmining 5,6 % ini tashkil qildi. Import qilingan qurilish materiallari tarkibidan yog'och va

yog'och mahsulotlari (45,7 %), sement (14,0 %), shisha va shisha buyumlar (4,5 %) hamda asbest (2,2 %) asosiy ulushni egallagan.

### Qurilish materiallari importi

(yanvar-iyun, 2019 y.)



Yuqoridagi infografikadan ko`rinib turibdiki, 2019-yilning yanvar-iyun oyida qurilish materiallari import hajmi 2018-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Qurilish materiallari importi hajmining o`shishiga yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, xususan, keng ko`lamdagi qurilish-rekonstruktsiya ishlarini amalga oshirilishi sabab bo`lmoqda.

### Qurilish materiallari importi dinamikasi

(yanvar-iyun, mln. AQSH doll)

Tarkib	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil
Sement	0,3	0,7	9,6	62,2	87,7
Yog'och va yog'och mahsulotlari	76,7	174,8	212,4	299,6	286,3




Tarkib	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil
Asbest	8,0	9,1	14,0	24,0	13,8
Shisha va shisha buyumlar	16,9	13,0	22,3	27,1	28,4

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan to'yintirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligi quyidagi jadvallardan ko'rish mumkin.


### Mashina va asbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(yanvar-iyun, 2019 y.)



**Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar  
import qilingan asosiy hamkor davlatlar**

(yanvar-iyun, 2019 y.)



Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi boshqarmasi  
Tel.:71-230-80-42 (43)**